

HADYA SHARTNOMASI TUSHUNCHASI, HUQUQIY BELGILARI VA PREDMETI VA UNING HADYADAN FARQLI JIHATLARI

Xudoynazarova Ozoda Mizrob qizi

Navoiy viloyati yuridik texnikumi o‘qituvchisi

Telefon:+998(93) 506 22 06

22hamza06@mail.ru

O‘razaliyeva Rushana Abduvahobovna

Navoiy viloyati yuridik texnikumi o‘qituvchisi

Telefon:+998(91) 856 05 10

Orazaliyevarushana@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11274349>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi bo‘yicha hadya shartnomasi tushunchasi, mohiyati, huquqiy belgilari, predmeti va uning hadyadan farqli jihatlari tahlil etilgan. Shuningdek, mazkur shartnoma turi bilan bog‘liq xorijiy tajribalar o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar. Vasiyatnoma, meros guvohnomasi, ko‘chmas mulk, hadya qiluvchi va oluvchi, kadastr hujjatlari, jamoat xavfsizligi, merosxo‘r, xayr-ehson, ashyoni tekinga mulk qilib berish, rasmiy hadya.

THE CONCEPT, LEGAL SIGNS AND SUBJECT OF A GIFT CONTRACT AND ITS DIFFERENT ASPECTS FROM A GIFT

Abstract. This article analyzes the concept, essence, legal signs, subject of the gift contract according to the legislation of the Republic of Uzbekistan and its different aspects from the gift. Also, foreign experiences related to this type of contract were studied.

Keywords. Will, certificate of inheritance, real estate, donor and recipient, cadastral documents, public security, heir, donation, free transfer of property, official gift, punishment, compulsory community service, correctional work.

ПОНЯТИЕ, ПРАВОВЫЕ ПРИЗНАКИ И ПРЕДМЕТ ДОГОВОРА ДАРЕНИЯ И ЕГО ОТЛИЧНЫЕ АСПЕКТЫ ОТ ДАРЕНИЯ

Аннотация. В данной статье анализируются понятие, сущность, юридические признаки, предмет договора дарения по законодательству Республики Узбекистан и его различные аспекты от дарения. Также был изучен зарубежный опыт, связанный с данным видом контракта.

Ключевые слова. Завещание, свидетельство о наследстве, недвижимость, даритель и получатель, кадастровые документы, общественная безопасность, наследник, дарение, безвозмездная передача имущества, официальный подарок.

Sovg‘aning katta kichigi bo‘lmaydi, degan gap bor. Ammo rasman, qonun nuqtayi nazaridan qaraganda, shunday sovg‘alar ham mavjudki, ularni shunchaki samimiyat bilan tutqizib, tashakkur bilan qabul qilish orqaligina ish bitmaydi. Bunday sovg‘alarni taqdim etishda notarial idoralar ishtirok etib, maxsus shartnoma tuzish kerak bo‘ladi. Bu hadya shartnomasidir.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 502-moddasida belgilanishicha, hadya shartnomasi deb, ashyoni tekinga mulk qilib berish, mulk huquqini berish yoki bu majburiyatlarni


olishga aytildi. Hadya shartnomasida shaxs va beriladigan narsa aniq ko'rsatilishi kerak. Hadya qiluvchining vafotidan keyin topshirishni nazarda tutuvchi shartnomasi haqiqiy hisoblanmaydi.

Chunki bu hadya emas, vasiyatnomasi me'yoriga to'g'ri keladi. Hadya shartnomasida ko'zda tutilgan mulk taraflar tomonidan shartnomasi imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi.

Vasiyatnomasi bergan shaxs to vafot etgunicha o'z mulkining haqiqiy egasi hisoblanadi va uni istagan vaqtida bekor qilishi, o'zgartirishi yoki to'ldirishi mumkin. Hadya shartnomasi esa, sovg'ani qaytib olmaganlaridek, imzolangan zahotiyoy ikkinchi taraf mulkiga o'tib ketadi va qaror o'zgartirilmaydi.

Hadya qilishni niyat qilgan inson hali shartnomasi tuzilmasdan olamdan o'tib qolsa, bo'lajak hadya egasi mulkni talab qilib olish huquqiga ega emas. Bu shunchaki va'da hisoblanadi. Agar notarial idorada ish boshlangan, shartnomasi tuzish harakatlari amalga oshirilgan bo'lsa, ishni marhumning yaqinlari meros guvohnomasini rasmiylashtirish orqali davom ettirishlari mumkin.

Hadya shartnomasi quyidagi huquqiy belgilarga ega:



Shartnomasi asosida ko'chmas mulk, xususan, uy hadya qilingan holatlari amaliyotda ko'p kuzatilgani uchun, ba'zi insonlar boshqa narsalar bilan hadya shartnomasini tuzish mumkin emas, deb hisoblaydilar. Aslida rasmiy hadya avtomashina, qimmatbaho qog'oz, qimmatbaho buyum, ko'p miqdordagi pul ham bo'lishi mumkin. Qonunda ko'chmas mulk va avtomototransportlarni hadya qilinganda notarial tartibda tasdiqlanishi majburiy shart sifatida belgilangan. Mazkur toifadagi shartnomalardan tashqari har qanday shartnomasi turlarida taraflar o'zlarining xohish irodalariga qarab o'zaro kelishishlari yoki notarial tartibda tasdiqlatishlari mumkin.

Hadya shartnomasi uchun quyidagi zaruriy omillar mavjud:

- shartnomani tasdiqlashda har ikkala tomon: hadya qiluvchi va oluvchi qatnashishi;
- har ikkala tomonning xohish-irodasi;
- tomonlarning amaldagi, muddati o'tmagan pasport ma'lumotlari, doimiy yo vaqtinchalik ro'yxatga olingan yashash joylari;
- hadya qilinayotgan ko'chmas mulk (uy)ning kadastr hujjatlari, uy rejasi, maydoni, qavati, nechta xonadan iborat ekanligi, xonodon manzili, joylashgan joyi, uy daftari, uy turi (hovli yoki ko'p qavatli uy) haqidagi to'liq ma'lumot;
- egalik huquqini belgilovchi hujjatlari (turli hil shartnomalar, guvohnomalar, hokim yo sud qarorlari, davlat dalolatnomasi, uy-joy kooperativlari ma'lumotnomalari va boshqalar);
- hadya qilinuvchi imoratning loyihiboyi rejasi, ko'chmas mulk joylashgan tumandagi kadastr bo'limining belgilangan tartibdagisi ma'lumotnomasi, turar joyidan, suv, gaz, elektr energiya, telefon va boshqa to'lovlardan qarzi yo'qligi to'g'risida kommunal bo'limdan ma'lumot;

- hadya beruvchi turmush o‘rtog‘ining rozilagini bildiruvchi yozma ariza.

Hadya shartnomasi shartnomada ko‘rsatilgan predmetga nisbatan mulk huquqini bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o‘tishini nazarda tutuvchi bitimlar toifasiga kiradi. Hadya shartnomasi tekinga tuziladi, agar hadya shartnomasidan ma’lum bir manfaat yoki naf olish ko‘zda tutiladigan bo‘lsa, mazkur shartnomaga hadya shartnomasi sifatida qayd etilmaydi. Bundan tashqari, ashyo yoki huquq muqobil berilganida yo bo‘lmasa, muqobil majburiyat mavjud bo‘lganida bunday shartnomaga ham hadya deb tan olinmaydi va bunday shartnomalarga O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining bitimi haqiqiy emas deb nomlangan normalari qo‘llaniladi.

Hadya shartnomasida hadya narsasi aniq ko‘rsatilishi lozim. Biron-bir shaxsga ashyni yoki mulk huquqini tekinga berishni yoki biron-bir shaxsni mulkiy majburiyatdan ozod etishni va’da qilish (hadya etishni va’da qilish), agar va’da tegishli shaklda berilgan bo‘lsa va kelajakda aniq shaxsga ashyo yoki mulkiy huquqni tekinga berish yoki uni mulkiy majburiyatdan ozod qilish maqsadi aniq ko‘rinib turgan bo‘lsa, hadya shartnomasi deb tan olinadi.

Biron-bir shaxsga ashyni yoki mulk huquqini tekinga berishni yoki biron-bir shaxsni mulkiy majburiyatdan ozod etishni va’da qilish (hadya etishni va’da qilish), agar va’da tegishli shaklda berilgan bo‘lsa va kelajakda aniq shaxsga ashyo yoki mulkiy huquqni tekinga berish yoki uni mulkiy majburiyatdan ozod qilish maqsadi aniq ko‘rinib turgan bo‘lsa, hadya shartnomasi deb tan olinadi.

Amaldagi Fuqarolik kodeksi normalari hadya shartnomasini tuzish shakliga bir qancha talablarni qo‘yadi. Misol uchun ba’zi hadya shartnomalarni og‘zaki tuzish mumkin. Lekin ko‘char mulkni hadya qilish shartnomasi:

- hadya qiluvchi yuridik shaxs bo‘lganida;
- fuqarolar o‘rtasida bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravaridan ortiq summaga shartnomaga tuzilayotganda;
- shartnomada kelajakda hadya etish va’da qilingan hollarda oddiy yozma shaklda tuzilishi lozim.

Ya’ni bu kabi shartnomalarni og‘zaki tuzilishi uning haqiqiy emas deb topilishiga sabab bo‘ladi. Shuni unutmaslik kerakki, hadya shartnomasiga oid qonunchilik hujjatlari talablarini buzilishi hadya shartnomasini haqiqiy emasligiga olib keladi.

Hadyani topshirish uni taqdim qilish, ramziy topshirish (kalit va hokazolarni taqdim qilish) yoki huquqni belgilaydigan hujjatlarni taqdim etish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Hadya qilish, ayni paytda hadyani oluvchiga topshirish og‘zaki amalga oshirilishi mumkin. Ko‘chmas mulkni hadya qilish shartnomasi hadya qiluvchi yuridik shaxs bo‘lganida, fuqarolar o‘rtasida bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravaridan ortiq summaga shartnomaga tuzilayotganda, shartnomada kelajakda hadya etish va’da qilingan hollarda oddiy yozma shaklda tuzilishi lozim.

Agar hadya shartnomasi ro‘yxatdan o‘tkazilgan bo‘lsa, hadyani qabul qilishni rad etish ham davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi lozim.

2. Shartnomada qatnashuvchi taraflar, ularning huquq va majburiyatları

Hadya shartnomasida taraf sifatida jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar va davlat birdek ishtirok etishi mumkin. Hadya shartnomasida taraflar hadya qiluvchi va hadya oluvchi deb nomlanib, muomala layoqatiga ega bo‘lishi lozim.

Muomalaga layoqatsiz shaxslar tomonidan hadya shartnomalari ularning vasiylari orqali imzolanishi lozim. Istisno tartibda aytishimiz mumkinki, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 29-moddasiga asosan, o‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmagan shaxslar o‘zlari mustaqil ravishda hadya oluvchi, hadya qiluvchi bo‘lishlari va hadya shartnomasini o‘zlarining ish haqi va stipendiyalariga tayangan holda tuzishlari mumkin. Lekin ular mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan ashylarni tasarruf qilish huquqiga ega emaslar. Bunday bitimlar voyaga yetmaganlar tomonidan amalga oshirilishi uchun ularning qonuniy vakillarining roziligi talab qilinadi. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 505-moddasida hadya shartnomasi tuzish uchun belgilangan cheklovlar mavjud. Yuridik shaxs xo‘jalik yuritish yoki operativ boshqarish huquqi asosida o‘ziga qarashli bo‘lgan ashyon, agar qonunda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, mulkdorning roziligi bilan hadya etishga haqli. Bu cheklash qiymati katta bo‘lmasa odadagi sovg‘alarga taalluqli emas.¹

Fuqarolik qonun hujjatiga asosan, er-xotin o‘rtasida hadya shartnomasi tuzilishiga cheklov qo‘yilmaydi. Hadya qilingan mol-mulk faqat o‘sha shaxsning o‘ziga tegishli hisoblanadi va undan haq undirilishiga yoki boshqacha tarzda o‘zlashtirishga faqat mulkdorning roziligi bilangina yo‘l qo‘yiladi.

Quyidagi holatlar qayd etilganda hadya shartnomasi bekor bo‘lishi mumkin:

1. Har ikkala tomon o‘z xohishi bilan rozi bo‘lsa hadya shartnomasi bekor qilinadi.
2. Hadya oluvchi hadya qiluvchining, uning oila a’zolari yoki yaqin qarindoshlarining hayoti yoki sog‘lig‘iga qarshi ataylab jinoyat sodir qilgan hollarda hadyani bekor qilishga sud tartibida yo‘l qo‘yiladi.
3. Hadya oluvchi hadya qiluvchini qasddan o‘ldirgan taqdirda hadya qiluvchining vorislari sudda hadyani bekor qilishni talab etish huquqiga ega. Agar hadya oluvchining hadya qiluvchi uchun katta nomulkiy qiymatga ega bo‘lgan hadya buyumga nisbatan muomalasi uning butunlay yo‘q bo‘lib ketishi xavfini solsa, hadya qiluvchi hadya bekor etilishini sud tartibida talab qilishga haqli.

Hadya shartnomasida hadya oluvchi hadya qiluvchidan oldin vafot etgan taqdirda hadya qiluvchining hadyani bekor qilish huquqi shart qilib qo‘yilishi mumkin. Hadya bekor qilingan taqdirda hadya oluvchi hadya qilingan ashyon, agar u hadya bekor qilingan paytda asl holatda saqlanib qolgan bo‘lsa, qaytarishi lozim. Hadya shartnomasini bajarishdan bosh tortish va hadyani bekor qilish to‘g‘risidagi qoidalar og‘zaki tuzilgan hadya shartnomalariga nisbatan qo‘llanmaydi.

Qonunchilikka muvofiq, qurollar yoki shu kabi jamoat xavfsizligiga xavf soluvchi buyumlarni hadya qilish mumkin emas. Hadya qiluvchi hadya qilingan xonadonda oila a’zosi sifatida istiqomat qilishga haqlidir. Hadya qiluvchi hadya evaziga nimadir talab qilishga haqli emas.

Hadya shartnomasining vasiyatnomadan asosiy farqi fuqarolik qonunchiligidida hadyani hadya oluvchiga hadya qiluvchining vafotidan keyin oshirilishini nazarda tutuvchi shartnoma tan olinmaydi. Bunday holatda hadyaga nisbatan vasiyatnoma to‘g‘risidagi qoidalar qo‘llanadi.

Hadyaning vasiyatnomadan yana bir asosiy farqi shundaki, mulk hadya qiluvchining tirikligida topshiriladi.

¹ <http://www.lex.uz>

3. Xayr-ehson

Xayr-ehson hadya shartnomasining bir ko‘rinishi hisoblanadi, bunda xayr-ehson umumfoydali maqsadlarga yo‘naltirilgan bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 511-moddasiga ko‘ra xayr-ehson fuqarolarga, davolash, tarbiya, ijtimoiy himoya muassasalariga va shunga o‘xshash boshqa muassasalarga, xayriya, ilmiy va o‘quv muassasalariga, fondlarga, muzeylar va boshqa madaniyat muassasalariga, jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlarga, shuningdek davlatga va boshqa fuqarolik huquqi subyektlariga qilinishi mumkin. Xayr-ehson qilingan mol-mulk kelgusida uni qabul qilgan shaxsning mablag‘lari jumlasiga kiradi, uning operativ boshqaruviga o‘tadi.

Xayr-ehsonning predmeti fuqarolik muomalasida bo‘lgan obyektlar, ya’ni pullar, qimmatli qog‘ozlar, mol-mulklar, ashyolar, binolar, inshootlar (ularning bir qismi), avtomobillar va hokazolar bo‘lishi mumkin. Xayr-ehsonni qabul qilishga biror kimsa (ya’ni uchinchi shaxs) ning ruxsati yoki roziligi talab qilinmaydi. Xayr-ehsonni qabul qilishga biror kimsaning ruxsati yoki roziligi talab qilinmaydi.

Xayr-ehson qiluvchi mol-mulkni fuqaroga xayr-ehson qilganida bu mol-mulkdan ma’lum bir maqsadda foydalanishni shart qilib qo‘yishi lozim, yuridik shaxslarga xayr-ehson qilganda esa bu shartni qo‘yishi mumkin. Bunday shart bo‘lmaganida mol-mulkni fuqaroga xayr-ehson qilish oddiy hadya deb hisoblanadi, qolgan hollarda esa xayr-ehson qilingan mol-mulkdan hadya oluvchi uning vazifasiga muvofiq foydalanadi.

Aniq maqsadda foydalanishga mo‘ljallangan xayr-ehsonni qabul qilib olayotgan yuridik shaxs xayr-ehson qilingan mulkdan foydalanish bo‘yicha amalga oshirilgan operatsiyalarning alohida ro‘yxatini yuritishi lozim.

Agar xayr-ehson qilingan mulkdan xayr-ehson qiluvchi ko‘rsatgan maqsadda foydalanish vaziyat o‘zgarganligi tufayli mumkin bo‘lmay qolsa, mulkdan boshqa maqsadda faqat xayr-ehson qiluvchining roziligi bilan, mol-mulkni xayr-ehson qilgan fuqaro vafot etgan bo‘lsa yoki mulkni xayr-ehson qilgan yuridik shaxs qayta tashkil etilgan yoxud tugatilgan bo‘lsa — sud qaroriga muvofiq foydalanish mumkin.

Xayr-ehson qilingan mulkdan xayr-ehson qiluvchi ko‘rsatgan maqsadga zid holda foydalanish xayr-ehson qiluvchiga, uning merosxo‘rlariga yoki boshqa huquqiy vorisiga xayr-ehsonni bekor qilishni talab qilish huquqini beradi.

REFERENCES

1. www.lex.uz.
2. www.legalcity.uz
3. www.constitution.uz.
4. www.pravacheloveka.uz.
5. www.norma.uz.
6. www.advice.uz.